

**DETEKTIV ASARLARDA KUTILMAGAN YECHIMNING BADIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (ARTUR KONAN DOYLNING “SHERLOK XOLMSNING SARGUZASHTLARI” VA O‘LMA UMARBEKOVNING “YOZ YOMG‘IRI” ASARI ASOSIDA)**

*Toshkent Davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti Adabiyotshunoslik:  
Jahon adabiyoti yo‘nalishi  
2-bosqich magistranti  
Eshnazarova O‘g‘ilshod*

**Annotatsiya:** Detektiv asarlarni boshqa badiiy janrlardan ajratib turadigan o‘ziga xos jihatlaridan biri – voqealar rivojining murakkabligi, kutilmagan yechim va psixologik chuqurlik, hayotiylik bilan uyg‘unlashganligi hisoblanadi. Detektiv janr doimo o‘quvchini o‘ziga jalb etadigan, uni qahramonlar bilan birga tafakkur qilishga, topqirlik va diqqatni namoyon qilishga undaydigan badiiy janrdir. Ushbu janrda badiiy voqealar rivoji, qahramonlarning ichki kechinmalari, kutilmagan burilish va yakunda yuzaga keladigan yechim – asarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

**Kalit so‘zlar:** detektiv asar, kutilmagan yechim, badiiy-psixologik xususiyat, syujet, qahramon, ruhiy kechinma, tafakkur, voqea, burilish, hissiyot.

**Аннотация:** Одной из отличительных черт, выделяющих детективные произведения среди других художественных жанров, является сложность развития событий, неожиданная развязка и сочетание психологической глубины и живости. Детективный жанр — это художественный жанр, который всегда привлекает читателя, побуждает его размышлять вместе с героями, проявлять находчивость и внимательность. В этом жанре развитие художественных событий, внутренние переживания героев, неожиданный поворот и развязка, которая в итоге приходит к решению, — основное содержание произведения.

**Ключевые слова:** детективное произведение, неожиданная развязка, художественно-психологическая особенность, сюжет, герой, духовный опыт, мысль, событие, поворот, эмоция.

**Abstract:** One of the distinctive features that distinguishes detective works from other artistic genres is the complexity of the development of events, the unexpected solution and the combination of psychological depth and vitality. The detective genre is an artistic genre that always attracts the reader, encourages him to think along with the heroes, to show resourcefulness and attention. In this genre, the development of artistic events, the inner experiences of the heroes, the unexpected turn and the solution that emerges in the end - the main content of the work.

**Keywords:** detective work, unexpected solution, artistic and psychological feature, plot, hero, spiritual experience, thought, event, turn, emotion.

## KIRISH

Detektiv janri dunyo adabiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. Ushbu yo'nalishda asarlarning asosiy o'ziga xosligi – kutilmagan yechim, hayrat bag'ishlaydigan so'nggi natija va bu jarayondagi badiiy-psixologik qatlamlardir. Sirli va murakkab voqealarga boy, har bir detal sinchiklab tahlil etilgan detektiv asarlarda o'quvchi uchun kutilmagan yechim o'ziga xos syurpriz sifatida har doim katta ahamiyat kasb etadi. Bunday asarlarda o'ziga xos intriga va ziddiyat, muallif tomonidan ongli ravishda qurilgan g'oya va obrazlar vositasida voqelikning ochilishi, o'quvchining diqqatini ohangrabodek o'ziga jalb etadi. Kutilmagan yechimni tayyorlashda muallif uchun asar syujetini murakkab shakllantirish, xarakterlar harakatining motivatsiyasini chuqur tarzda ochib berish, ayrim detallarni ko'zdan yashirish yoki to'g'ri taqdim etmaslik orqali voqealarni noan'anaviy tarzda olib borish muhim hisoblanadi. Bu jarayonda har bir psixologik niqob, har bir yondashuv ham alohida badiiy mahorat talab qiladi. Syujetning har bir burilishida taxmin qilish, yechim izlash, xayolot va xotiralarga murojaat qilish orqali o'quvchi voqealar kechayotgan dunyo ichra erkin harakat qiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Detektiv asarlarda kutilmagan yakun odatda voqealarga parallel ravishda bir necha syujet chizig'ini olib borish, har bir obrazga alohida e'tibor qarash, o'quvchini chalg'ituvchi detallardan mohirona foydalanish, hamda muammo bosqichma-bosqich ochishda namoyon bo'ladi. Mazkur xususiyatlar, bir tomondan, asardagi voqelik uzviyligini saqlagan holda, ikkinchi tomondan, o'quvchini faol fikrlashga, o'ylashga va doimiy zamin izlashga undaydi. Adabiyotda detektiv janrning namoyondalaridan biri Artur Konan Doyl – uning “Sherlok Xolmsning sarguzashtlari” asarlari dunyo bo'ylab millionlab kitobxonlarning qalbidan chuqur joy olgan. Syujet qurilishi, obrazlarning kuchli psixologik motivatsiyasi, yechimga olib boruvchi zanjirlarning uzunligi va murakkabligi o'ziga xos badiiy va psixologik tafakkurni talab qiladi. Asarda harakatlar mantig'i har bir satrda yashirin bo'lsa-da, butun voqealar tugallangachgina aniq-ravshan bo'lib ko'zga tashlanadi. Doyl asarlarining psixologik ustunligi shundan iboratki, voqealar rivoji davomida o'quvchini kutilmagan yechim tomon yetaklab boruvchi psixologik noziklik va badiiy-tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalaniladi [1].

Badiiy asarda psixologik tafsilotlarni kuchaytirishga alohida urg'u beriladi. Obrazlar ichki dunyosi, ularning harakatlaridagi ehtiyotkorlik va aniqlik, yuzaga keluvchi emotsional ziddiyatlar o'quvchi tomonidan chuqur idrok etilishi uchun muallif maxsus strategiyalar qo'llaydi. Bunday yondashuv asardagi ichki dinamikaning kuchayishiga, voqealarning tobora borib sirli tus olishiga sabab bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, asardagi har bir obrazning ruhiy holati, motivlari va gipotezalari muhim badiiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Detektiv asarlarda voqealar rivoji natijasida yuzaga keluvchi kutilmagan yechimlar, o‘quvchi ongida takror-takror so‘roqlar tug‘diradi. Bu so‘roqlarga aniq javob topish uchun hech bir tafsilotni o‘tkazib yubormaslik lozim. Asar voqealarining rivoji davomida barcha detallar yoshirolgan holda ifodalanadi, syujet chiziqlari bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq holda, puxta va aniqlik bilan tasvirlanadi. Kutilmagan natija esa, voqea zamiri va o‘quvchi kutgan dan farqli tarzda, odatda, bir necha darajadagi psixologik to‘qnashuvlar, dramatik voqealar va ichki ziddiyatlar natijasida yuzaga keladi. Mazkur janrda yozuvchi syujet chizig‘ini murakkab tarmoq shaklida kurgan holda, asar qahramonlarini turli sinovlar va psixologik tangliklarga duchor etadi. Obrazlarning har biri alohida ruhiy portretga, o‘ziga xos xatti-harakatlar motiviga ega bo‘lib, ular orqali asar ichki zaminini mustahkamlashga, harakatlar mohiyatini yanada teranroq ochishga erishiladi. Toshqin emotsiyalardan tashqari, o‘quvchi obrazi ichki ruhiy kurashida tashqi holat zaminida o‘z aksini topadi. Bu esa asarning ruhiy jozibadorligini hamda badiiy qatlamining chuqurligini oshiradi [2].

### MUHOKAMA VA NATIJALAR

Detektiv asarlardagi syujet qurilishi jarayonida ranjib chiqadigan asosiy jihat – psixologik tahlil va intriganing kuchli bog‘liqligidir. Ijtimoiy muhit, qahramonning atrof-muhitga munosabati, ichki monologlar va ichki ziddiyatlar muallif tarafidan har bir detalga mohirlik bilan singdiriladi. Bu jihat, bir tomondan, asar syujetini tanqidiy qamrab olish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, psixologik qatlamlarni ochishda beqiyos samaradorlik beradi. Xarakterlar orasidagi oppozitsione va ichki qarama-qarshiliklar ham o‘ziga xos badiiy-psixologik holatni vujudga keltiradi. Asar davomida har bir obrazning o‘zaro to‘qnashuvi, ruhiy urinishlari, shubhalari va quvonchlari asosiy zamin vazifasini o‘taydi. Bunday murakkab ruhiy holatlar, ayniqsa, syujetning eng tayanch nuqtalarida muhim rol o‘ynaydi. Syujet chizig‘idagi har bir o‘zgarish, har bir tap-tap boshlangan izlar, qayta-qayta tashlanayotgan shubhali fikrlar – barchasi badiiy ruhiyat va psixologik chuqurlik mezonlari asosida shakllanadi. Detektiv prozaning yana bir o‘ziga xos xususiyati – o‘quvchini faol psixologik mulohazaga majburlashidir. Bu, o‘z navbatida, asardagi har bir syujet chizig‘i zamirida falsafiy va badiiy tafakkurni, qisqa vaqt ichida bir necha variantli echimlarni ishlab chiqish jarayonini ham aks ettiradi. O‘quvchi asar voqealarining rivoji davomida ajralmas ishtirokchiga aylanadi, har bir tafsilotni diqqat bilan kuzatib, kutilayotgan yakun ustida muntazam o‘ylaydi [3].

Yuqoridagi xususiyatlarni o‘zida mujassam qilgan O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri” asari o‘zbek detektiv janri rivojida alohida o‘rin egallaydi. Unda syujet chizig‘ining silliq, ochiq-oydin emasligi, obrazlar ruhiy dunyosining ko‘p qatlamliliigi, voqealarning yuksaladigan dramatikizmi hamda kutilmagan yechimning bexosdan

paydo bo'lishi asarning badiiy qudratini oshirgan. Asarning asosiy kuchi – inson ruhiyatini aniq va teran aks ettirish, voqealardagi ichki dramatismni ko'rsata bilishda namoyon bo'ladi. Bu yondoshuv o'z navbatida o'quvchini asar doirasida qahramonlar bilan birga yashashga, ularning ichki kechinmalarini to'liq his etishga undaydi. Shu bilan birga, detektiv janrda muallif uchun asosiy vazifalardan yana biri – o'quvchini har bir detali bilan qiziqtirish, ularni syujet to'qimasi orqali o'ziga rom qilishdir. Bu esa voqealar ustida bir necha darajadagi ochilmagan sirlardan, yashirin motivlardan, ruhiy to'qnashuv va ichki kurashlardan samarali foydalanishni talab qiladi. Har bir obrazning psixologik portreti batafsil yoritilib, ruhiy siljishlar va emotsional o'zgarishlar tahliliga chuqur yondoshiladi [4].

Qahramonlarning har bir harakati, o'y-xayoli va his-tuyg'ularining tiniqligi ham asar badiiy qatlamini kuchaytiruvchi omillardan biridir. Qisqa vaqt yetakchi syujet yo'li, voqealar rivojining bir-biriga chambarchas bog'langanligi ham asarning umumiy ruhiy zaminini mustahkamlaydi. Kutilmagan yechim esa, har doim syujet rivojining eng muhim bosqichida, o'quvchi uchun kutilmagan lahzada ro'y beradi. Obrazlarning murakkab ruhiy kubiklari, tangliklar va ichki ziddiyatlarning badiiy ifodasi orqali mualliflar asarning umumilliy va umuminsoniy mohiyatini ko'rsata oladi. Bu jihatlar nafaqat detektiv asar janrotik xususiyatini, balki zamonaviy adabiyotning o'ziga xos psixologik paradigmasini ham mustahkamlashga xizmat qiladi [5].

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, detektiv asarlarda kutilmagan yechim badiiy-psixologik xususiyatlarning kuchli uyg'unligi hisoblanadi. Syujetning murakkabligi, obrazlarning ruhiy dunyosi, voqealarning ko'p bosqichli ifodasi va psixologik tahlilning o'ta nozik shakli bunday asarlarni o'ziga xos qiladi. Zamonaviy detektiv asarlarda ham bu yondashuv davom etib, o'quvchi ruhiyatiga faol ta'sir ko'rsatadi. Badiiy detektiv asarlarni yaratishda asosiy tamoyillardan biri – kutilmagan yechimni pishiq badiiy va chuqur psixologik tafsilotlar orqali asoslash va o'quvchini har bir bosqichda yangi savollarga, yangi fikrlarga undashdir. Asar muallifining badiiy va psixologik mahorati aynan shunda ko'zga tashlanadi va kitobxon uchun kutilmagan yakunlar hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Raxmonov I., „Sarguzasht asarlarda an'ana va zamonaviylik“. - O'TA, 1979 5-son
2. Irisboyev T., „Hozirgi o'zbek detektiv adabiyotining taraqqiyot xususiyatlari“ Dissertatsiya. Toshkent. 2001
3. Герасименко Э. Н. Детективный текст как объект филологических исследований // Naukobi zapisi – Харьков, 2013. Вып. 1. № 3 (75). С.39-51.
4. Долинин К. А. Речевые жанры как средство организации социального взаимодействия // Жанры речи. – Саратов, 1999. Вып. 2. С. 7-13.

5. Дудина И. А. Дискурсивное пространство детективного текста : автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар, 2008. 24 с.
6. Карасик В. И. О категориях дискурса [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://homepages.tversu.ru/~ips/JubKaras.html>
7. O'lmas Umarbekov „ Yoz yomg'iri" „ Tanlangan asarlar" i 2-jildidan olindi, „ Sharq" NMAK bosh tahririyati, Toshkent-2005
8. Artur Konan Doyle, „ Sherlok Xolmas haqida hikoyalar" „ Yulduzcha" Toshkent-1989

